**Материал и методы:** работа выполнена на базе семейной поликлиники Алмазарского района. Под наблюдением в течение года находились 122 ребенка (62 мальчика и 60 девочек) раннего года жизни, получавшие различные виды вскармливания (грудное молоко и детские молочные смеси). В 1-ю группу включены 22 ребенка, находящихся на естественном вскармливании. 2-ю группу составили 50 детей, получавших молочные смеси без пробиотиков (1-я опытная группа). В 3-ю группу вошли также 50 детей, получавших детские молочные смеси с пробиотиками (2-я опытная группа). **Результаты:** искусственное и естественное питание оказывало различные влияния на основные циклы головного мозга, то есть на сон и бодрствование, у детей. Кроме того выявлена взаимосвязь кишечной микрофлоры с морфологическим и физиологическим развитием головного мозга на разных этапах взросления ребенка. **Выводы:** полученные результаты показали, что количество ночных пробуждений с возрастом ребенка уменьшается.

**Ключевые слова:** ЭЭГ, кишечная микрофлора, искусственное и естественное вскармливание, альфа-волны, дельта-индекс.





## JIGAR NOALKOGOL YOG'LI KASALLIGINI ERTA TASHXISLASH: JIGAR STEATOZINI ANIQLASHDA KOMPLEKS KO'RSATKICHLARNING ROLI

Parpibayeva D.A., Musayeva M.A.

## РАННЯЯ ДИАГНОСТИКА НЕАЛКОГОЛЬНОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНИ ПЕЧЕНИ: РОЛЬ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ В ВЫЯВЛЕНИИ СТЕАТОЗА ПЕЧЕНИ

Парпибаева Д.А., Мусаева М.А.

## EARLY DIAGNOSIS OF NON-ALCOHOLIC FATTY LIVER DISEASE: THE ROLE OF COMPLEX INDICES IN DETECTION OF LIVER STEATOSIS

Parpibaeva D.A., Musaeva M.A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

**Цель:** выявление стеатоза печени на ранних стадиях у больных с неалкогольной жировой болезнью печени. **Материал и методы:** исследование проводилось на базе отделения общей терапии многопрофильной клиники Ташкентской медицинской академии в 2021-2023 годах. Под наблюдением были 60 пациентов, находившихся на лечении по поводу неалкогольной жировой болезни печени, и 40 практически здоровых лиц. **Результаты:** 3,5% пациентов с неалкогольной жировой болезнью печени имели FLI меньше 30, 20,30% – FLI 30-60 и 76,2% - FLI больше 60. Отмечено, что 98% больных контрольной группы имели показатель индекса FLI менее 30. **Выводы:** применение полученных результатов на практике позволит увеличить частоту раннего выявления заболевания в первичном звене, прогнозировать риск и тяжесть заболевания и одновременно улучшить качество жизни больных.

**Ключевые слова:** стеатоз печени, неалкогольная жировая болезнь печени, индекс HSI, индекс FLI, индекс массы тела, АЛТ, АСТ,  $\gamma$ -глутамилтранспептидаза.

**Objective:** To detect liver steatosis in early stages in patients with non-alcoholic fatty liver disease. **Material and methods:** The study was conducted in the general therapy department of the multidisciplinary clinic of the Tashkent Medical Academy in 2021-2023 years. In the study includes 60 patients who were treated with non-alcoholic fatty liver disease and 40 practically healthy individuals. **Results:** 3.5% of patients with non-alcoholic fatty liver disease had FLI <30, 20.30% had FLI 30-60, and 76.2% had FLI >60. It was noted that 98% of patients in the control group had an index index of FLI <30. **Conclusion:** The application of the obtained results in practice makes it possible to improve the quality of early detection of the disease in the primary medical institution, to predict the risk and severity of the disease, and at the same time to improve the quality of life of patients.

**Key words:** hepatic steatosis, non-alcoholic fatty liver disease, HSI index, FLI index, body weight index, ALT, AST, gamma-glutamyltranspeptidase.

Бугунги кунда jigar alokogolsiz yog' kasalligi butun dunyoda eng keng tarqalgan surunkali jigar kasalligi bo'lib hisoblanadi. Ushbu nozologik birlik bir qator patologik jarayonlarni, shu jumladan jigar steatozi (gepatoz), bu ko'p hollarda ortga qaytishi mumkin bo'lgan jarayon bo'lib, jigar alkogolsiz steatogepatit (JASG) esa, jigar sirrozi va gepatosellyulyar karsinoma bosqichigacha rivojlanish ehtimoli bilan tavsiflanadi [2,3,10,11]. JAYK tarqalishi allaqachon pandemiya bo'lib, aholi orasida semizlik darajasining ortishi bilan bog'liq [1, 4] 2016-yilda o'tkazilgan eng katta meta-tahlil natijalariga ko'ra, sayyoramiz aholisining 25-24 % bu kasallik uchraydi [5, 9]. Markaziy Osiyo va g'arb mamlakatlari JAYK ning tarqalish chastotasi 5-18% va 20-30 % ni tashkil qildi [6,7]. Yaqinda olingan meta-tahlil natijalariga ko'ra [1,2]. JAYKning global tarqalishi 25,24% ni tashkil qiladi. JAYK har qanday yosh toifasida aniqlanishi mumkin, ammo semizlik mavjud insonlarda kasallikning tarqalishi umumiy aholiga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'lib, 62-93% ga yetadi. 2 tip qandli diabet va semizlik bilan og'rigan bemorlarda kasallikning uchrash chastotasi 70 dan 100% gacha o'zgarib turadi. Rossiyada JAYKning epidemiologik tuzilishi: bemorlarning 26,1 %

JAYK, ular orasida jigar sirrozi 3 % bemorlarda, steatoz - 79,9%, steatogepatit - 17,1 % ida aniqlangan [8].

Bugungi kunda JAYK ning yuqori darajada tarqalishi, shuningdek, kasallikning progressiv kechishi tufayli ushbu patologiyani mavjud, samarali va erta tashxislash masalasi juda dolzarbdir.

### Tadqiqot maqsadi

JAYK bilan og'rigan bemorlarda jigar steatozini erta bosqichlarda aniqlash.

### Material va usullar

Tadqiqot Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi xo'jalik hisobidagi umumiy terapiya bo'limida 2021-2023 yillarda olib borildi. Tadqiqotga JAYK bilan statsionar sharoitda davolangan 60 nafar bemor va 40 nafar amaliy sog'lom shaxslar kiritildi.

Barcha bemorlardan tadqiqotga kiritish uchun yozma rozilik olingan. Tadqiqotdan chiqarish mezonlari: 18 yoshdan kichik bo'lgan bemorlar; bemorning spirtli ichimliklarga qaramligi; o'tkir yoki surunkali toksik va / yoki virusli gepatit; surunkali jigar kasalligining boshqa ma'lum sabablari (birlamchi biliar xolangit, birlamchi sklerozlovchi xolangit, autoimmun gepatit, Wilson-Konovalov kasalligi, gemoxromatoz, temirning ortiqcha yuklanishi, alfa-1 antitripsin yetishmovchiligi); klinik,

laboratoriya va instrumental ma'lumotlarga ko'ra jigar sirrozi tashxisi mavjud bemorlar; anamnezidan 5 yildan ortiq yuqori va juda yuqori xavfli arterial gipertenziya yoki hozirgi nazoratsiz gipertenziya; skrining paytida AST > darajasi me'yorning yuqori chegarasidan 5 barobar yuqori (ULN); skrining paytida ALT > darajasi me'yorning yuqori chegarasidan 5 barobar yuqori (ULN); so'nggi 5 yildagi bariatrik jarrohlik yoki tadqiqot vaqtida rejalashtirilgan bariatrik jarrohlik (shu jumladan, oshqozon bandaji va gastroektomiya) natijasida tana vaznining >7% i belgilangan vazn yo'qotish; NYHA tasnifiga muvofiq surunkali yurak etishmovchiligi IIB, III-IV funksional sinflari; o'tkir miokard infarkti (MI) yoki o'tkir koronar sindrom; 40 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun SCORE shkalasi bo'yicha o'limga olib keladigan yurak-qon tomir asoratlarning 10 yillik mutloq xavfi > 4% (yuqori) - agar ushbu shkaladan yetarli darajada foydalanish mumkin bo'lsa; ultratovush/MRT/KT usullari bilan aniqlangan qorin old devori terisidan qorin bo'shlig'ining o'rta chizig'i bo'ylab 4-5 bel umurtqalari darajasida jigar kapsulasigacha >70 mm masofa; oshqozon-ichakdan qon ketish: oshqozon, o'n ikki barmoqli ichak yoki qizilo'ngach yarasidan faol qon ketish belgilari; o'tkir yoki surunkali dispeptik kasalliklar; yomon sifatli o'sma: ushbu tadqiqotga jalb qilish boshlanishidan 2 yil oldin anamnezida xavfli o'sma mavjudligi; 1-tip qandli diabet; homiladorlik; emizish; klinik yoki laboratoriya tekshiruv natijalarida o'zgarish kuzatilgan boshqa har qanday holat. Qandli diabet bilan og'rikan bemorlar, boshqa sababli buyrak shikastlanishi va saraton mavjud bemorlar, homilador ayollar. Nazorat guruhiga 40 nafar amaliy sog'lom shaxslar kiritildi.

JAYK bilan og'rikan bemorlarda kasallik rivojlanishining asosiy an'anaviy xavf omillari ortiqcha tana vazni, semizlik, 2-tip qandli diabet, insulinorezistentlik, dislipidemiya, yosh >40, sistolik AQB >140 mm.sm.ust, diastolik AQB >90 mm.sm.ust, metabolik sindrom hisoblanadi.



Kasallikning keyingi bosqichlarga progressiyalanishiga xos xavf omillarini baholash quyidagilarni o'z ichiga oladi: jinsi, yoshi; ovqatlanish tarzi, bemorning jismoniy faolligi, kasallikning kechishini aniqlash.

JAYK bilan kasallangan barcha bemorlar klinik, laborator va instrumental tekshiruvlardan o'tkazildi. Fizik tekshiruvlar yordamida bemorni bo'yi (sm), vazni (kg), tana massasi indeksini (kg/m<sup>2</sup>), bel atrofini (sm), son atrofini (sm), ularning nisbatlari hisoblandi. Bo'y uzunligi ertalab rostomer yordamida, tana vazni ertalab och qoringa bioimpedansometriya yordamida o'lchandi. TVI esa tana vazni (kg) og'irligining bo'y uzunligi (m<sup>2</sup>) kvadratiga nisbati yordamida hisoblab chiqilgan(kg/m<sup>2</sup>). Shuningdek, organizmda yallig'lanish jarayoni, anemiya mavjudligi, trombotsitlar darajasini baholash uchun umumiy qon tahlili o'tkazildi. Qonning biokimyoviy ko'rsatkichlari: umumiy oqsil, albumin, umumiy bilirubin, bevosita bilirubin, bilvosita bilirubin, mochevina, kreatinin, siydik kislotasi, alanin aminotransferaza, aspartat aminotransferaza, laktat dehidrogenaza, gamma glutamiltransferaza, lipid spektri ko'rsatkichlari aniqlandi, kapilyar qondagi glyukoza miqdori - CLIMA MS-15 yarim avtomatik biokimyoviy analizatorida. Qon zardobidagi C reaktiv oqsil Bio-Rad analizatorida (AQSh) tijorat to'plami (eBioscience, Avstriya) yordamida immunoferment tahlili (ELISA) yordamida aniqlandi.

Jigar hajmini baholash uchun qorin bo'shlig'ini tekshirish va ultratovush tekshiruvi asosida jigarda strukturaviy o'zgarishlar aniqlandi.

#### Natijalar va muhokama


Tadqiqotga jami 100 ta tekshiriluvchi jalb etilgan bo'lib, ulardan 60 nafari JAYK bilan og'rikan bemorlar va 40 nafar amaliy sog'lom shaxslar tashkil etadi. Asosiy guruhni 36 ta (60%) ayollar, 24 ta (40%) erkaklar tashkil etadi. Nazorat guruhida esa 15ta (38%) ayollar, 25 ta (62%) erkak jinsiga mansub amaliy sog'lom shaxslar edi (1-rasm).



1-rasm. Kuzatuvdagi guruhlar orasida jins bo'yicha taqsimlanish

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kasallikning rivojlanishida 40 yoshdan yuqori bo'lgan bemorlar asosiy xavf guruhiga kiradi. Kasallik mavjud bo'lgan bemorlarning


yoshi nazorat guruhiga qaraganda ancha kattaroq edi, ya'ni bemorlarning 33tasi (73%) ini 50 va undan yuqori yoshdagi bemorlar tashkil etadi. (2-rasm).



**2-rasm. Asosiy guruhda yosh kategoriyasini uchrash chastotasi**

Visseral semirishning ko'rsatkichlari tana vazni indeksi (TVI) va bel aylanasi bo'lib, JAYKning progressiyalanishi va kasallikning og'ir shakllari rivojlanishini bashorat qilishga yordam beradi. TVI <30 kg/m yoki maqsadli TVI mavjud bo'lgan, ammo ichki organlarda yog' to'planishi yoki disfunktsiyali yog' to'qimalari bo'lgan bemorlarda jigar fermentlari aktivligining buzilishi bilan

yoki buzilish bo'lmagan holda JAYK rivojlanadi. JAYK bilan og'rikan 60 bemorning 12 tasida (20%) ortiqcha tana vazni, 20ta (33,3%)sida semizlik 1-daraja, 18ta (30%) sida semizlik 2-daraja, 8tasida semizlik 3-daraja aniqlangan, nazorat guruhidagi amaliy sog'lomlarning 12 tasida (30%) ortiqcha tana vazni aniqlangan. (3-rasm).



**3-rasm. Guruhlar orasida tana vazni indeksi ko'rsatkichi tahlil natijalari**

To'g'ri tashxis qo'yish va differensial diagnostika uchun umumiy amaliyot shifokoriga klinik tadqiqot usullaridan tashqari laboratoriya tekshiruvlari natijalari ham lozim. JAYK ning barcha bosqichlarida qon biokimyoviy tahlili parametrlarining o'zgarishi kuzatiladi, bu bemorlarda MS mavjudligiga mos keladi (YZLP, JPZLP, TG, glyukoza, insulin, xolesterin). Shu bilan birga, JAS bosqichida ko'rsatkichlarda qo'shimcha o'zgarishlar bo'lmaydi; JASG bosqichida qon zardobini tahlil qilish natijalari AST, ALT (odatda 3 baravar yoki undan

kam), GGT darajasining (2 marta yoki undan kam), kamdan-kam hollarda – ishqoriy fosfataza darajasining oshishi e'tiborni tortadi. (1-jadval).

JAYK bilan og'rikan bemorlar guruhida jigardagi ferment ko'rsatkichlari (ALT, AST), umumiy bilirubin normada, lekin nazorat guruhiga nisbatan biroz yuqori ko'rsatkichda ekanligi aniqlandi. Asosiy guruhda C-reaktiv oqsil miqdori esa sezilarli darajada oshgan. Qondagi lipid ko'rsatkichlaridan biri triglitseridlar miqdori JAYK bilan kasallangan bemorlarda, nazorat-

ga guruhidan farqli ravishda normaga nisbatan yuqori ko'rsatkichda ( $168, 1 \pm 34,5$ ) ekanligi aniqlandi. Sistolik arterial qon bosim (SAQB) va diastolik arterial qon bo-

sim (DAQB) qiymatlari asosiy guruhda nazorat guruhga nisbatan ham sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

1-jadval

Tekshiruvdagi guruhlar orasida laborator ko'rsatkich natijalari

| Ko'rsatkichlar                    | 1-guruh    | 2-guruh    | P ko'rsatkich |
|-----------------------------------|------------|------------|---------------|
| Glyukoza (mg/dl)                  | 110±13     | 100±16     | < 0,0001      |
| Alaninaminotransferaza (Ed/l)     | 35,2±7,2   | 30,3 ±5,1  | < 0,0001      |
| Aspartataminotransferaza (Ed/l)   | 37,3±8,0   | 33,1±7,4   | < 0,0001      |
| Umumiy bilirubin (mg/dl)          | 0,86±0,3   | 0,77±0,2   | < 0,0001      |
| C-reaktiv oqsil (mg/l)            | 6,5 (4-12) | 2,1 (2-3)  | < 0,0001      |
| Xolesterin (mg/dl)                | 181,5±27,0 | 142,8±22,0 | < 0,0001      |
| Triglitsid(mg/dl)                 | 168,1±34,5 | 141,6±17,7 | < 0,0001      |
| Gamma-glutamiltanspeptidaza (E/l) | 43,0±16,8  | 34,0±9,1   | < 0,0001      |

Jigarning ultratovush tekshiruvi JAYK diagnostikasi-ning birinchi tanlovi sifatida tavsiya etiladi va kasallikni aniqlashda yuqori diagnostik aniqlik bilan tavsiflanadi, yoki tana massa indeksi (TVI) >40 kg/m<sup>2</sup> bo'lganda ultratovush tekshiruvi cheklangan.


JAYKning ultratovush belgilari:

- jigar parenximasi yorqinligining diffuz ortishi - yorqin oq jigar (jigarning

exogenligi buyraklarning exogenligidan oshadi);

- jigar tuzilmalarining geterogenligi;
- jigar tasvirining xiraligi va/yoki qon tomir tasvirining oshishi;
- distal exoning pasayishi.

JAYK bilan og'riqan bemorlarning 95% ida gepatomegaliya, 96% ida jigar tasvirining xiraligi va bemorlarning barchasida ya'ni 100% ida giperexogenlik aniqlandi.



4-rasm. JAYK bilan og'riqan bemorlarda ultratovush tekshiruv natijalari

Kasallik diagnostikasida ahamiyatga ega bo'lgan noinvaziv diagnostika usullaridan biri HSI ni hisoblash ALT, AST, TVI ko'rsatkichi, bemor jinsi va qandli diabet mavjudligi yordamida amalga oshiriladi. Indeks qiymati 36 dan yuqori (HSI>36) ligi 92% sezgirlik bilan steatoz mavjudligini ko'rsatadi. 1-guruh bemorlarimizning 66,9% ida HSI>36 ekanligi, ya'ni jigar steatozi mavjudligi aniqlandi (5-rasm).

Yana bir ishonchli indeks FLI indeksini hisoblashda tana massasi indeksi TVI, triglitsid (TG) miqdori, gamma-glutamiltanspeptidaza (GGTP) va bel atrofi aylanasi (BA) foydalanadi. Natija 30 birlikdan kamligi (FLI <30) steatoz yo'qligini bildiradi ko'rsatkichlari 30-60 ("kulrang zona") (FLI >30) steatoz mavjudligi va


chuqurroq tekshiruv o'tkazish lozimligini, 60 dan ortiq birlik esa (FLI>60) 78% ehtimollik bilan JAYK mavjudligini ko'rsatadi (FLI>60).

JAYK bilan og'riqan bemorlarning 3,5% ida FLI <30, 20,30% ida esa FLI 30-60, 76,2% 5 ida FLI >60 ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhidagi 98% bemorlar esa indeks ko'rsatkichi FLI <30 ekanligi qayd etildi.


**Xulosalar**

JAYK ning rivojlanishida xavf omillari muhim ahamiyatga ega. Ortiqcha tana vazni, semizlik, 2- tip qandli diabet kasalligi, 40 yoshdan yuqori yosh, arterial gipertenziya, dislipidemiya va metabolik sindrom kabi omillar kasallikning rivojlanishi va keyingi bosqichlarga progressiyalanishiga sabab bo'ladi.





5-rasm. Guruhlar orasida HSI indeks ko'rsatkich natijalari



6-rasm. Guruhlar orasida FLI indeks ko'rsatkich natijalari

JAYK turli prognozlarga ega bo'lgan patologik jihatdan ajralib turadigan 2 ta holatlarni o'z ichiga oladi: alkogolsiz jigar yog'li distrofiyasi va jigar alkogolsiz steatogepatiti; keyingi patologik jarayon jigar fibrozi, sirroz va gepatosellyulyar karsinoma kabi kasalliklarning keng spektrini qamrab oladi.

Olingan natijalarni amaliyotga tadbiiq etish kasallikni birlamchi bo'g'inda o'z vaqtida erta bosqichlarda aniqlash sifatini oshirishga, kasallikning rivojlanish xavfini va og'irligini bashorat qilishga va shu bilan birga bemorlarning hayot sifatini yaxshilash imkonini yarata-di. JAYK ning noinvaziv tekshirish usullarining maqsadi: 1) birlamchi tibbiy-sanitariya bo'g'inida metabolik sindrom xavfi yuqori bo'lgan shaxslar orasida JAYK ning rivojlanish xavfini aniqlash; 2) ikkilamchi va uchlamchi profilaktika ishlarini olib borishda prognozi yomon bo'lgan JASG bilan og'rigan bemorlarni aniqlash; 3) kasallikning rivojlanishini kuzatish; 4) terapevtik davu choralariga nisbatan natijani prognoz qilish. Ushbu maqsadlarga erishish jigar biopsiyasiga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Буеверов А.О. Многоликий стеатогепатит // Клинические перспективы гастроэнтерологии, гепатологии: научно-практический журнал для клиницистов. - 2012. - № 3. - С. 3-9.
2. Ивашкин В., Драпкина О. Распространенность неалкогольной жировой болезни печени в Российской Федерации – 2009.-№ 58.-С. 1207.
3. Маев И.В., Кузнецова Е.И., Андреев Д.Н., Дичева Д.Т. Современные и перспективные подходы к диагностике неалкогольной жировой болезни печени. Consilium

Medicum. -2015.-№ 17 (8):-P. 20-7.

4. Armstrong MJ, Houlihan D.D, Bentham L et al. Presence and severity of non-alcoholic fatty liver disease in a large prospective primary care cohort. J Hepatol.- 2012.-№ 56:-P. 234-40.
5. Ghouri N., Preiss D., Sattar N. Liver enzymes, nonalcoholic fatty liver disease, and incident cardiovascular disease: a narrative review and clinical perspective of prospective data. Hepatology.-2010.-№.52(3):-P.1156-1161. <https://doi.org/10.1002/hep.23789>
6. Leoni, S., Tovoli, F., Napoli, L., Serio, I., Ferri, S., Bolondi, L. Current guidelines for the management of non-alcoholic fatty liver disease: A systematic review with comparative analysis. World J. Gastroenterol. -2018.-№. 24.-P.3361-3373. [CrossRef] [PubMed]
7. Mayo Clinic gastroenterology and hepatology board review. Editor-in-chief, S.C.Hauser; associate editors, A.S.Oxentenko, W.Sanchez. 5th edition. 2015.
8. Satapathy SK, Sanyal AJ. Epidemiology and natural history of nonalcoholic fatty liver disease. Semin Liver Dis. -2015.-№.35(03):-P.221-235.
9. Torres DM, Williams CD, Harrison SA. Features, diagnosis and treatment of nonalcoholic fatty liver disease. Clin Gastroenterol Hepatol.- 2012.-№. 10.-P.837-58.
10. Torres DM, Harrison SA. Nonalcoholic Fatty Liver Disease. In: Sleisenger and Fordtran's Gastrointestinal and Liver Disease: Pathophysiology, Diagnosis, Management. Edited by M.Feldman, L.S.Friedman, L.J.Brandt. 10th ed. 2015
11. <https://doi.org/10.1055/s-0035-1562943>
12. Younossi ZM, Koenig AB, Abdelatif D, Fazel Y, Henry L, Wymer M.
13. Global epidemiology of nonalcoholic fatty liver disease metaanalytic assessment of prevalence, incidence, and outcomes. Hepatology. -2016.-№.64(1).-P.73- 84. <https://doi.org/10.1002/hep.28431>

---

**JIGAR NOALKOGOL YOG'LI KASALLIGINI ERTA TASHXISLASH: JIGAR STEATOZINI ANIQLASHDA KOMPLEKS KO'RSATKICHLARNING ROLI**

Parpibayeva D.A., Musayeva M.A.

**Maqsad:** JAYK bilan og'riqan bemorlarda jigar steatozini erta bosqichlarda aniqlash. **Material va usullar** tadqiqot Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi xo'jalik hisobidagi umumiy terapiya bo'limida 2021-2023 yillarda olib borildi. Tadqiqotga JAYK bilan statsionar sharoitda davolangan 60 nafar bemor va 40 nafar amaliy sog'lom shaxslar kiritildi. **Natijalar:** JAYK bilan og'riqan bemorlarn-

ing 3,5 % ida FLI <30, 20,30% ida esa FLI 30-60, 76,2 % ida FLI >60 ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhidagi 98% bemorlar esa indeks ko'rsatkichi FLI <30 ekanligi qayd etildi. **Xulosa:** olingan natijalarni amaliyotga tadbiiq etish kasallikni birlamchi bo'g'inda o'z vaqtida erta bosqichlarda aniqlash sifatini oshirishga, kasallikning rivojlanish xavfini va og'irligini aniqlashga va shu bilan birga bemorlarning hayot sifatini yaxshilash imkonini yaratadi.

**Kalit so'zlar:** jigar steatozi, jigar alkogolsiz yog' kasalligi, HIS indeks, FLI indeks, tana vazni indeksi, ALT, AST, gamma-glutamiltanspeptidaza.



**ЖИГАРДАН РАДИКАЛ ЭХИНОКОККЭКТОМИЯ**

Рахманов К.Э., Давлатов С.С., Раджабов Ж.П.

**РАДИКАЛЬНАЯ ЭХИНОКОККЭКТОМИЯ ИЗ ПЕЧЕНИ**

Рахманов К.Э., Давлатов С.С., Раджабов Ж.П.

**RADICAL ECHINOCOCCECTOMY FROM THE LIVER**

Rakhmanov K.E., Davlatov S.S., Radjabov J.P.

*Самарқанд давлат тиббиёт университети, Бухоро давлат тиббиёт институти*

**Цель:** оценка эффективности аспирационного кавитационного ультразвукового диссектора при радикальной эхинококкэктомии с очисткой фиброзной капсулы. **Материал и методы:** проанализированы результаты хирургического лечения 71 больного эхинококкозом печени. Всем пациентам выполнена идеальная эхинококкэктомия или тотальная перикистэктомия. В зависимости от проведенных хирургических вмешательств больные были разделены на две группы. 1-ю группу составили 54 (76,0%) пациента, оперированные с использованием ультразвукового аспиратора-диссектора SONOCA 300. Во 2-ю группу вошли 17 (23,9%) больных, которым выполнена идеальная эхинококкэктомия и тотальная перикистэктомия из печени традиционными инструментами. **Результаты:** применение ультразвукового диссектора-аспиратора SONOCA 300 позволяет шире использовать радикальные современные методы хирургических вмешательств при эхинококкозе печени, выполнять их бескровно, с хорошим окончательным гемо- и холестазом при минимальном травмировании тканей в зоне воздействия. Использование аспиратора-диссектора позволяет сократить длительность операции, уменьшить кровопотерю, произвести эффективную антипаразитарную обработку стенок кисты, обеспечивает надежный гемо- и холестаз после травматичных вмешательств. **Выводы:** применение ультразвукового диссектора-аспиратора SONOCA 300 конечном итоге это обеспечивает значительное улучшение ближайших результатов хирургического лечения больных эхинококкозом печени и предотвращает рецидивы заболевания.

**Ключевые слова:** эхинококкоз печени, радикальная эхинококкэктомия, ультразвуковой диссектор-аспиратор.

**Objective:** To evaluate the effectiveness of the aspiration cavitation ultrasonic dissector in radical echinococcectomy with cleaning of the fibrous capsule. **Material and methods:** The results of surgical treatment of 71 patients with liver echinococcosis were analyzed. All patients underwent ideal echinococcectomy or total pericystectomy. Depending on the surgical interventions performed, the patients were divided into two groups. Group 1 consisted of 54 (76.0%) patients operated on using the ultrasonic aspirator-dissector SONOCA 300. Group 2 included 17 (23.9%) patients who underwent ideal echinococcectomy and total pericystectomy from the liver using traditional instruments. **Results:** The use of the ultrasonic dissector-aspirator SONOCA 300 allows for a wider use of radical modern methods of surgical interventions in liver echinococcosis, to perform them bloodlessly, with good final hemo- and cholestasis with minimal tissue trauma in the area of action. The use of the aspirator-dissector allows for a shorter surgery duration, reduced blood loss, effective antiparasitic treatment of the cyst walls, and provides reliable hemo- and cholestasis after traumatic interventions. **Conclusions:** The use of the ultrasonic dissector-aspirator SONOCA 300 ultimately provides a significant improvement in the immediate results of surgical treatment of patients with liver echinococcosis and prevents relapses of the disease.

**Key words:** liver echinococcosis, radical echinococcectomy, ultrasonic dissector-aspirator.

Хозирги вақтда жигар эхинококкози ташхис сизиларли қийинчиликларни келтириб чиқармайди, бу асосан ноинвазив визуализация усулларининг пайдо бўлиши билан боғлиқ бўлиб, уларнинг информацион қиймати 95-100% га етади. Бироқ, эхинококкозга нисбатан ҳушёрликнинг йўқлиги кеч ташхис қўйишга ва натижада касалликнинг мураккаб шаклларининг кўпайишига ёрдам беради. Шу билан бирга, ЖЭ ни даволаш жиддий жарроҳлик муаммосидир. Жарроҳликнинг энг кенг тарқалган усули қолган бўшлиқни йўқ қилишнинг турли хил вариантлари билан эхинококкэктомия бўлиб қолмоқда, бу аксарият ҳолларда (90,6%) амалга оширилади. Натижада, жарроҳлик беморларнинг операциядан кейинги ўлим даражаси ўртача 2,2% ни ташкил қилади, операциядан кейинги рецидивлар 3-54% ҳолларда кузатилади. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, ушбу хавфли касалликнинг

олдини олиш ва даволаш бўйича маълумотларни тақомиллаштириш ва янги самарали чора-тадбирларни ишлаб чиқиш зарурлиги аён бўлади.

Замонавий адабиётларда рецидивнинг сабаблари, шакли ва табиатини аниқлашда яқдил фикрлар мавжуд эмас, толали капсула деворини операция ичидаги антипаразитик даволаш бўйича консенсусга эришилмаган, қолдиқ кисталарнинг ролига жуда кам эътибор берилган, шифокорлар антипаразитик дориларнинг хавфсизлиги ҳақида эҳтиёт бўлишди антипаразитик дориларнинг хавфсизлиги ҳақида.

**Тадқиқот мақсади**

Толали капсулани тозалаш билан радикал эхинококкэктомияда аспиратор кавитация ультратоуш диссекторининг самарадорлигини баҳолаш.

**Материал ва усуллар**

Тадқиқот жигар эхинококкози бўлган 71 беморни жарроҳлик даволаш натижаларига асосланган.

Барча беморларга идеал эхинококкэктомия ёки тотал перицистэктомия ўтказилди. Амалга оширилган жарроҳлик аралашувларга қараб, беморлар икки гуруҳга бўлинган. SONOCA 300 ультратовуш аспиратор диссектори ёрдамида операция қилинган 54 (76,0%) та беморлар 1-гуруҳга тайинланган. 2-гуруҳга анъанавий асбоблар ёрдамида жигардан идеал эхинококкэктомия ва тотал перицистэктомия қилинган 17 (23,9%) бемор киритилган (1-жадвал).

2020 йилгача монополяр коагулятор ёрдамида идеал эхинококкэктомия ва очиқ операциялардан сўнг тотал перицистэктомия каби радикал операциялар амалга оширилди. Шу билан бирга, операция оғир қон йўқотиш ва операциядан кейинги даврда қониқарсиз натижалар билан давом этди.



1-расм. Кавитацион ультрасоник диссектор аспиратори- SONOCA 300 (Söring фирма)

Ушбу ҳолатларни ҳисобга олган ҳолда, 2020 йилдан бери SONOCA 300 кавитацион ультратовушли диссектор аспиратори ёрдамида радикал операциялар амалга оширилди (1-расм).

SONOCA 300 ультрасоник диссектори асбобнинг ишчи учида 25, 35, 55 кГц оралиғида ультратовуш тўлқинлари тўлқинини яратишга имкон беради. SONOCA 300 ультратовушли диссектор аспиратори паренхимал тўқималарни селектив ультратовуш билан даволаш принципига асосланади. Бундай ҳолда, паренхимал тўқималар йўқ қилинади ва ассимиляция орқали чиқарилади. Кавитация, суюқлик билан таъминлаш ва тўқималарнинг аспирацияси таъсирида содир бўладиган бузилиш ишчи асбоб ва аппаратнинг дизайн хусусиятлари туфайли бир вақтнинг ўзида содир бўлади (2-расм).

Шу билан бирга, найсимон тузилмалар бузилмайди, улар кесиш ёки боғлашдан кейин кесишади. Шу сабабли, кистани тозалаш минимал қон йўқотиш билан бузилмаган ҳолда амалга оширилади, соғлом жигар тўқималарига минимал зарар етказилади ва операциядан кейинги даврда сафро оқиши кузатилмайди.

Жигар эхинококкози жарроҳлигида ультратовуш аспиратор диссекторининг самарадорлиги куйидаги мезонларга мувофиқ баҳоланди:

\* интраоператив қон йўқотиш миқдори;

\* назорат дренажларига кўра суюқлик таркибининг миқдори ва табиати.

Жарроҳлик қон йўқотиш миқдорининг қўлланадиган жарроҳлик аралашувлар усулларига боғлиқлигини аниқлаш учун юқорида айтиб ўтилган гуруҳдаги беморларда турли ҳажмдаги жарроҳлик аралашувлар пайтида операция ичидаги қон йўқотишнинг ўртача кўрсаткичлари таққосланди.

Идеал эхинококкэктомия билан монополяр коагулятордан фойдаланганда жарроҳлик қон йўқотишининг ўртача миқдори  $303,4 \pm 18,85$  мл (2-гуруҳ) ни ташкил этди. SONOCA 300 ультратовушли аспиратор диссекторидан фойдаланганда, кистани толали капсула билан тозалашда жарроҳлик қон йўқотиш минимал эди ва деярли 5 баравар камайди (1-гуруҳ).

Операциянинг травматик хусусиятини, эришилган гемо - ва холестазининг сифатини қиёсий баҳолаш мезонларидан бири қорин бўшлиғидан дренаж оқимининг миқдори ва табиати, шунингдек, назорат дренажларини олиб ташлаш вақти эди. Юқорида қайд этилган 71 беморнинг тиббий ёзувларидан олинган маълумотлар таҳлил қилинди.

Таққосланган гуруҳларда радикал эхинококкэктомиядан сўнг SONOCA 300 дан фойдаланадиган беморларда сезиларли даражада яхши натижалар кузатилди. Операциядан кейинги даврда қорин бўшлиғидан дренажлар орқали оқинди табиатини таҳлил қилганда, анъанавий радикал аралашувдан кейин 3 (4,2 %) беморларда 300 мл гача қон кетиши кузатилди.

Барча ҳолатларда қон кетиш консерватив даволанди ва релапаротомия талаб қилинмади. Сафро чиқиши 4 (5,6%) беморда кузатилган ва динамик кузатув билан 9-12 кунларда сафро чиқиши тўхтаган (2-жадвал).

Бизнинг кузатишларимизда операциядан кейинги дастлабки уч кун ичида 34 (62,9%) 1 ва 2-гуруҳ беморларида (11,8%) 2-гуруҳ беморларида назорат дренажлари олиб ташланди. 4 (23,5%) 2-гуруҳ беморларида дренажлар 5 кундан кейин олиб ташланди (3-жадвал).



#### Хулоса

SONOCA 300 ультратовушли аспиратор диссекторидан фойдаланиш жигар эхинококкози учун жарроҳлик аралашувнинг радикал замонавий усулларидан кенгроқ фойдаланишга имкон беради, перикистик паренхима бузилади ва аспирация қилинади, бу эса эхинококк кистасининг герминал элементларини ушбу зонада қолдириш эҳтимолини нолга камайтиради. Бундан ташқари, ультратовушли диссектор каби юқори технологиялар радикал эхинококкэктомияни қонсиз, яхши яқуний гемо - ва холестаз билан зарарланган ҳудудда тўқималарнинг минимал шикастланиши билан амалга оширишга имкон беради. Бу операция давомийлигини қисқартириш, қон йўқотилишини камайтириш ва киста деворларини самарали антипаразитик даволашни амалга ошириш имконини беради. Охир оқибат, бу жигар эхинококкози билан оғриган беморларни жарроҳлик даволашнинг бевосита натижаларида сезиларли яхшиланишни таъминлайди ва касалликнинг қайталанишини олдини олади.



## Амалга оширилган операцияга қараб беморларни тақсимлаш

| Беморлар гуруҳи | Операция  | Беморлар сони (n = 71) |      |
|-----------------|---|------------------------|------|
|                 |   | абс.                   | %    |
| 1-гуруҳ         | SONOCA 300 ёрдамида жигардан идеал ЭЭ               | 25                     | 35,2 |
|                 | SONOCA 300 ёрдамида умумий перицистектомия          | 29                     | 40,8 |
| 2-гуруҳ         | Монополяр коагулятор ёрдамида жигардан идеал ЭЭ     | 2                      | 2,8  |
|                 | Монополяр коагулятор ёрдамида тотал перицистектомия | 15                     | 21,1 |
| Жами:           |   | 71                     | 100  |



2-расм. Ультрасоник диссектор аспиратори ёрдамида киста эксфолиацияси- SONOCA 300

## Операциядан кейинги даврда дренаж орқали қорин бўшлиғидан оқинди табиати

| Ажратиладиган табиат | 1-гуруҳ, n=54 |      | 2-гуруҳ, n=17 |      | Жами n=71 |      |
|----------------------|---------------|------|---------------|------|-----------|------|
|                      | абс.          | %    | абс.          | %    | абс.      | %    |
| Сероз                | 20            | 37,0 | 1             | 5,9  | 21        | 29,6 |
| Сероз-геморрагик     | 34            | 63,0 | 9             | 52,9 | 43        | 60,6 |
| қон кетиши           | -             | -    | 3             | 17,6 | 3         | 4,2  |
| сафро чиқиши         | -             | -    | 4             | 23,5 | 4         | 5,6  |

## Дренажни олиб ташлаш даври (кун)

| Муддати | 1-гуруҳ, n=54 |      | 2-гуруҳ, n=17 |      |
|---------|---------------|------|---------------|------|
|         | абс.          | %    | абс.          | %    |
| 1-кун   | -             | -    | -             | -    |
| 2-кун   | 34            | 62,9 | 2             | 11,8 |
| 3-кун   | 18            | 33,3 | 1             | 5,9  |
| 4-кун   | 2             | 3,7  | 3             | 17,6 |
| 5-кун   | -             | -    | 7             | 41,2 |
| > 5-кун | -             | -    | 4             | 23,5 |

## Адабиётлар

1. Амонов Ш.Ш., Прудков М.И., Файзиев З.Ш. Применение хирургических инструментов при эхинококкэктомии из печени // Российский медико-биологический вестник имени академика ИП Павлова. – 2017. – Т. 25. – №. 3.
2. Ахметов Д.Г. Радикальные операции в хирургическом лечении гидатидозного эхинококкоза печени.: Автореф. дис. ... канд. мед. наук. - Бишкек, 2009. - 22 с.
3. Вишневский В.А., Ефанов М.Г., Икрамов Р.З., Назаренко Н.А., Чжао А.В. Эхинококкоз печени. Хирургическое лечение // Доказательная гастроэнтерология. Москва, 2013. - №2. – С. 18-25.
4. Махмудов У.М. Тактические аспекты профилактики хирургического лечения рецидивных форм эхинококкоза печени и брюшной полости.: Автореф. дис. ... канд. мед. наук. - Ташкент, 2005. - 22 с.
5. Султанова Р. С. и др. Причины рецидива абдоминального эхинококкоза и его профилактика // Астраханский медицинский журнал. – 2016. – Т. 11. – №. 3. – С. 125-130.
6. Ризаев Ж.А., Курбаниязов З.Б., Рахманов К.Э., Махрамкулов З.М. Выбор хирургической тактики в зависимости от дооперационной топической диагностики эхинококкоза печени // Биология ва тиббиёт муаммолари.- 2021-№5.1 (131) С. 117-119.
7. Ризаев Ж.А., Курбаниязов З.Б., Рахманов К.Э., Махрамкулов З.М. Оптимизация диагностики различных морфологических форм эхинококкоза печени // Биология ва тиббиёт муаммолари.- 2021, -№5.1 (131).- С. 120-124.

## ЖИГАРДАН РАДИКАЛ ЭХИНОКОККЭКТОМИЯ

Рахманов К.Э., Давлатов С.С., Раджабов Ж.П.

**Мақсад:** толали капсулани тозалаш билан радикал ехинококкэктомияда аспирацион кавитация ультратовуш диссекторининг самарадорлигини баҳолаш. **Материал ва усуллар:** жигар эхинококкози бўлган 71 беморни жарроҳлик даволаш натижалари таҳлил қилинди. Барча беморларга идеал эхинококкэктомия ёки тотал перицистэктомия ўтказилди. Амалга оширилган жарроҳлик муолажаларига қараб, беморлар икки гуруҳга бўлинган. **Натижалар:** 1-гуруҳни SONOCA 300 ультратовушли аспиратор-диссектор ёрдамида операция қилинган 54 (76,0%) нафар бемор ташкил этди. 2-гуруҳга идеал эхинококкэктомия ва тотал перитсистэктомия бажарилган 17 (23,9%) нафар бемор киритилди. **Хулоса:** SONOCA 300 ультратовушли диссектор аспираторидан фойдаланиш охир-оқибат жигар эхинококкози билан оғриган беморларни жарроҳлик даволашнинг бевосита натижаларини сезиларли даражада яхшилади ва касалликнинг қайталанишини олдини олади.

**Калит сўзлар:** жигар эхинококкози, радикал эхинококкэктомия, ультратовушли диссектор аспиратори.

## CORRELATION BETWEEN GLUCOSE LEVELS AND FIBRINOGEN CONCENTRATION: IMPLICATIONS FOR CARDIOVASCULAR HEALTH IN STROKE PATIENTS

Rashid Muhammad Zubayr, Srojiddinov S.Sh., Kalash Dwivedi

## КОРРЕЛЯЦИЯ МЕЖДУ УРОВНЕМ ГЛЮКОЗЫ И КОНЦЕНТРАЦИЕЙ ФИБРИНОГЕНА: ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЗДОРОВЬЯ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ У ПАЦИЕНТОВ С ИНСУЛЬТОМ

Рашид Мухаммед Зубайр, Срождинов С.Ш., Калаш Двиведи

## GLYUKOZA DARAJASI VA FIBRINOGEN KONTSENTRATSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: INSULTLI BEMORLARDA YURAK-QON TOMIR SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Rashid Muhammad Zubayr, Srojiddinov S.Sh., Kalash Dwivedi

Tashkent Medical Academy

**Цель:** изучение мужских и женских детерминант взаимосвязи глюкозы/фибриногена на основе данных лабораторных исследований образцов крови людей. **Материал и методы:** изучены результаты лабораторных исследований пациентов, перенесших инсульт. Информация о пациентах была дополнительно стратифицирована по половому признаку, чтобы учесть гендерно-специфические детали. **Результаты:** выявлена умеренная положительная корреляция между уровнями глюкозы и концентрацией фибриногена. У мужчин наблюдались более сильные корреляции, чем у женщин, что свидетельствует о гендерно-специфических изменениях. **Выводы:** полученные результаты подчеркивают значимость гендерно ориентированных медицинских стратегий для улучшения сердечно-сосудистых исходов.

**Ключевые слова:** фибриноген, метаболизм глюкозы, сердечно-сосудистое здоровье, пациенты, перенесшие инсульт, гендерные различия.

**Maqsad:** inson qon namunalaridan olingan laboratoriya ma'lumotlari asosida glyukoza / fibrinogen munosabatlarining erkak va ayol determinantlarini o'rganish. **Material va usullar:** insultga uchragan bemorlarning laboratoriya tadqiqotlari natijalari o'rganildi. Bemor haqidagi ma'lumotlar jinsga oid ma'lumotlarni hisobga olish uchun jins bo'yicha qo'shimcha tabaqalashtirildi. **Natijalar:** glyukoza darajasi va fibrinogen kontsentratsiyasi o'rtasida o'rtacha ijobiy korrelyatsiya mavjud edi. Erkaklar ayollarga qaraganda kuchliroq korrelyatsiyani ko'rsatdi, bu jinsga xos o'zgarishlarni ko'rsatdi. **Xulosa:** ushbu natijalar yurak-qon tomir natijalarini yaxshilash uchun jinsga xos sog'liqni saqlash strategiyalarining muhimligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** fibrinogen, glyukoza almashinuvi, yurak-qon tomir salomatligi, insultli bemorlar, gender farqlari.

Cardiovascular diseases (CVDs) are a leading cause of morbidity and mortality worldwide, and understanding the underlying risk factors is crucial for effective prevention and management. Fibrinogen, a key protein in the blood coagulation process, has been identified as a significant biomarker for cardiovascular risk. Elevated fibrinogen levels are associated with an increased risk of thrombotic events, including heart attack and stroke [1]. Additionally, glucose metabolism plays a pivotal role in cardiovascular health, with dysregulation often leading to conditions such as diabetes, which further exacerbates cardiovascular risk [2].

The relationship between glucose levels and fibrinogen concentration is of particular interest, as both factors are independently linked to cardiovascular outcomes. However, the interplay between these biomarkers and their combined impact on cardiovascular health remains to be fully elucidated. Moreover, emerging evidence suggests that gender differences may influence the association between glucose metabolism and fibrinogen levels, potentially due to variations in hormonal profiles, body composition, and metabolic pathways [3]. This study is going to be very helpful for the investigation of relationship between blood glucose and fibrinogen as well with respect to gender specific differences. The purpose of the study was to gain an understanding of male and female

determinants of the glucose/fibrinogen relationship based on data from laboratory tests on blood samples of people willing of a medical practice house. Knowledge of these associations is crucial in designing gender-specific healthcare schemes in order to deal effectively with the specific determinants of health in both men and women, ultimately enhancing cardiovascular outcomes and contributing to the reduction of CVDs.

**Methodology.** We collected data for this study from the laboratory tests of patients who had suffered from stroke at Tashkent Medical Academy Polyclinics. The levels of glucose were verified from the hemoglobin A1c (HbA1c) assays, which reflect glucose average over the past 2 or 3 months of the patients. Fibrinogen levels were measured through laboratory assays are widely used such as Clauss method or immunoturbidimetric assays, which are considered the most accurate fibrinogen measurement. Information on patients was further stratified based on genders to allow for gender-specific details to be considered Pearson correlation coefficient was used to analyse correlations between levels of glucose and fibrinogen concentration. The data was analysed by Microsoft Excel, and descriptive statistics for each item, and statical representation of the results were made. In this study on the relationship of glucose metabolism and fibrinogen relevant to cardiovascular health



and metabolic disorders, we provide insights on the design of future research and the implementation of gender-specific health policies.

### Results

Based on the data collected and the study from the Tashkent Medical Academy Polyclinic, the analysis revealed interesting unique result regarding the connection between glucose levels and fibrinogen concentration in Stroke Patients. The Pearson correlation coefficient, when calculated using the data in Excel, was approximately 0.2219. This recommends a moderate positive correlation between glucose levels and fibrinogen concentration. On Further stratifying the studying by gender shown slightly stronger correlations among male patients (Pearson correlation coefficient = 0.1912) compared to female patients (Pearson correlation coefficient = 0.0884). These results indicates that changes in glucose levels may have a more evident effect on fibrinogen concentration among male patients compared to female patients. Such gender-specific variances in the association between glucose metabolism and fibrinogen levels acme the importance of considering biological and physiological variations between males and females in biomarker studies. These studies contribute to a better understanding of the complex interplay between glucose metabolism and fibrinogen levels with potential effects for cardiovascular health and metabolic disorders.

**Table 1**  
*Glucose Levels and fibrinogen Concentration Data for Male Patients*

| Glucose, mmol/l | Fibrinogen, mg/dl |
|-----------------|-------------------|
| 5               | 360               |
| 6.2             | 377               |
| 16.8            | 315               |
| 5               | 377               |
| 6.5             | 377               |
| 5.7             | 330               |
| 6               | 310               |
| 4.5             | 222               |
| 7.4             | 330               |
| 5.4             | 355               |
| 4.9             | 288               |
| 5.70            | 377               |
| 6.9             | 377               |
| 5.2             | 333               |
| 4.1             | 288               |
| 9.1             | 377               |
| 6               | 399               |
| 7.8             | 410               |
| 7.2             | 399               |
| 5.0             | 335               |
| 6.4             | 335               |
| 19              | 288               |

|     |     |
|-----|-----|
| 13  | 377 |
| 9.6 | 399 |
| 5.4 | 335 |
| 9   | 335 |
| 6.8 | 335 |
| 6.6 | 335 |

**Table 2**  
*Glucose Levels and Fibrinogen Concentration Data for Female Patients*

| Glucose, mmol/l | Fibrinogen, mg/dl |
|-----------------|-------------------|
| 5               | 360               |
| 6.2             | 377               |
| 5               | 377               |
| 6,5             | 377               |
| 5.7             | 330               |
| 4.9             | 288               |
| 6.9             | 377               |
| 5.2             | 333               |
| 4.1             | 410               |
| 6.4             | 347.5             |
| 13              | 377               |
| 5.4             | 333               |
| 6.1             | 288               |

**Table 3**  
*Glucose Levels and Fibrinogen Concentration Data*

| Glucose, mmol/l | Fibrinogen, mg/dl |
|-----------------|-------------------|
| 5               | 360               |
| 6.2             | 377               |
| 16.8            | 315               |
| 5               | 377               |
| 6.5             | 377               |
| 5.7             | 330               |
| 6               | 310               |
| 4.5             | 222               |
| 7.4             | 330               |
| 5.4             | 335               |
| 4.9             | 288               |
| 5.70            | 377               |
| 6.9             | 377               |
| 5.2             | 333               |
| 4.1             | 288               |



|     |     |
|-----|-----|
| 9.1 | 377 |
| 6   | 399 |
| 7.8 | 410 |
| 7.2 | 399 |
| 5.0 | 335 |
| 6.4 | 335 |
| 19  | 288 |
| 13  | 377 |
| 9.6 | 399 |
| 5.4 | 335 |
| 9   | 335 |
| 6.8 | 335 |
| 6.6 | 335 |
| 5   | 335 |
| 6.2 | 335 |
| 5   | 335 |

### Conclusion

1. In the last, the occurrence of correlations between fibrinogen concentration and glucose levels, predominantly among male patients indicates that glycaemic control is a vital factor curbing the cardiovascular risk. This study extends the knowledge and information of the intricate trails connecting glucose metabolism with fibrinogen concentrations and cardiovascular health. Sex-specific variance in these associations emphasizes the importance of individualized preventative medicine tactics, which account for the male and female biological and physiological domains.

2. Moreover, research needed to examine the physiology especially hormonal influence behind these relationships and to investigate sex-specific interventions to improve Cardiovascular and metabolic health.

### References

1. Brownlee M. The Pathobiology of Diabetic Complications: A Unifying Mechanism // *Diabetes*. – 2021. – Vol. 54, №6. – P. 1615-1625.
2. Danesh J., Collins R. Fibrinogen and cardiovascular disease: is it time to rethink? // *Brit. Med. J.* – 2001. – Vol. 312 (7041). – P. 759-760.
3. Fatma S., Keman X., Yifan L. et al. Sex differences and cardiovascular therapeutics // *Front. Cardiovas. Med.* – 2024. – Vol. 11.

4. Kurihara T., Lee D., Shinojima A. et al. Glucose levels between the anterior chamber of the eye and blood are correlated based on blood glucose dynamics // *PLoS One*. – 2021. – Vol. 16, №9. – P. e0256986.

5. Lee E.F., Kim G.H. Glucose metabolism and its impact on cardiovascular health // *Diab. Res. Clin. Pract.* – 2021. – Vol. 174. – P. 108743.

6. Liu S.L., Wu N.Q., Shi H.W. et al. Fibrinogen is associated with glucose metabolism and cardiovascular outcomes in patients with coronary artery disease // *Cardiovasc. Diab.* – 2020. – Vol. 36 (2020).

7. Meade T.W., Chakrabarti R. HbA1c: an important factor for the cardiovascular risk assessment of type 2 diabetic subjects // *Diab. Vasc. Dis. Res.* – 2006. – Vol. 3, №3. – P. 189-192.

8. Mohiuddin S.S. Correlation of Glycemic Status with Plasma Fibrinogen Level in Insulin Dependent as Well as Noninsulin Dependent Diabetic Patients // *J. Endocrinol. Diab.* – 2018. – Vol. 5, №5. – P. 1-6.

9. Patel R.S., Kumar S. Gender differences in metabolic pathways and cardiovascular risk // *Cardiovasc. Res.* – 2020. Vol. 116, №6. – P. 1052-1063.

10. Sarwar N., Butterworth A.S., Freitag D.F. et al. Interleukin-6 receptor pathways in coronary heart disease: a collaborative meta-analysis of 82 studies // *Lancet*. – 2010. – Vol. 379 (9822). – P. 1205-1213.

11. Sharan B., Sagili H., Kamalanathan S.K., Lakshminarayanan S. Serum Irisin Levels and its Association with Blood Glucose and Insulin Indices in Diagnosing Insulin Resistance in Adolescents with Polycystic Ovarian Syndrome // *J. Hum. Reprod Sci.* – 2021. – Vol. 14, №2. – P. 137-143.

12. Smith A.B., Johnson C.D. The role of fibrinogen in cardiovascular disease // *J. Cardiol.* – 2022. – Vol. 58, №4. – P. 345-358.

### CORRELATION BETWEEN GLUCOSE LEVELS AND FIBRINOGEN CONCENTRATION: IMPLICATIONS FOR CARDIOVASCULAR HEALTH IN STROKE PATIENTS

Muhammad Zubair Rashid, Srojedinov S.Sh., Kalash Dwivedi

**Objective:** To study male and female determinants of the glucose/fibrinogen relationship using laboratory data from human blood samples. **Material and Methods:** We studied the laboratory results of stroke patients. Patient information was additionally stratified by gender to account for gender-specific details. **Results:** A moderate positive correlation was found between glucose levels and fibrinogen concentrations. Stronger correlations were observed in men than in women, indicating gender-specific changes. **Conclusions:** Our findings highlight the importance of gender-specific health strategies to improve cardiovascular outcomes.

**Key words:** cardiovascular system, stroke, glucose, fibrinogen.



## ИСХОД ХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ ОТЛОЖЕННЫХ АППЕНДЕКТОМИЙ ПОСЛЕ ЛАЗЕРНОГО ОБЛУЧЕНИЯ АППЕНДИКУЛЯРНОГО ИНФИЛЬТРАТА

Садыков Р.А., Ибрагимова М.У., Нишанов М.Ф.

## APPENDIKS INFILTRATINI LAZER BILAN NURLANTIRISHDAN SO'NG KECHIKTIRILGAN APPEDEKTOMIYALARNI JARROHLIK DAVOLASH NATIJASI

Sodiqov R.A., Ibragimova M.U., Nishonov M.F.

## OUTCOME OF SURGICAL TREATMENT OF DELAYED APPEDECTOMIES AFTER LASER IRRADIATION OF APPENDICULAR INFILTRATE

Sadykov R.A., Ibragimova M.U., Nishanov M.F.

Андижанский государственный медицинский институт

**Maqsad:** lazer yordamida appendiks infiltratsiyasidan keyin kechiktirilgan appendektomiyalar natijalarini yaxshilash. **Material va usullar:** taqqoslash guruhida appendiks infiltratini muvaffaqiyatli davolashdan so'ng, asosiy guruhda 17 (33,3%) bemor, 5 (12,5%) bemor; Taqqoslash guruhida 2 nafar (4,8%) bemorda appendiks olib tashlanmasdan shoshilinch jarrohlik amaliyoti, yana 2 nafarida (4,8%) o'simtani olib tashlash bilan shoshilinch jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan. Shunga ko'ra, qiyosiy guruhda appendeks infiltrati muvaffaqiyatli davolangan 24 nafar (57,1%) bemorda va xo'ppoz drenaji bo'lgan yana 2 bemorda kechiktirilgan appendektomiya o'tkazildi. Asosiy guruhda 35 (87,5%) bemorda intervalli operatsiya o'tkazildi. **Natijalar:** lazer texnologiyalaridan foydalanish o'tkir appenditsitning qaytalanish chastotasini sezilarli darajada kamaytirishga imkon berdi (taqqoslash guruhidagi 19,2% ga nisbatan 5,7% gacha), shuningdek kechiktirilgan appendektomiya uchun zarur bo'lgan vaqtni  $6,7 \pm 2,5$  haftagacha qisqartirish imkonini berdi. taqqoslash guruhida  $11,9 \pm 4,3$  haftaga nisbatan. Asosiy guruhda appendektomiyalarning 74,3 foizi texnik qiyinchiliksiz yakunlandi, yopishtirishlar kamayganligi va appendektomiyaga kirishning qulayligi tufayli texnik qiyinchilik bilan operatsiyalarning chastotasi sezilarli darajada past bo'lgan. **Xulosa:** lazer texnologiyalari appendiks infiltratsiyasini yanada samarali va xavfsiz davolashga yordam beradi, jarrohlik aralashuvlarni soddalashtiradi va operatsiyadan keyingi asoratlar xavfini kamaytiradi.

**Kalit so'zlar:** appendiks infiltrati, o'tkir appenditsit, appendektomiya, relaps, lazer nurlanishi.

